

«Sog'lom bola yili» boshlanishi bilan biz qoraqalpog'istonlik yoshlar ajoyib sovg'a bilan taqdirlandik. Taxiatoş shahrida yangi va zamon talablariga javob beradigan Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilarni o'z bag'riga oldi.

Ayni paytda maktabda 122 nafar o'quvchiga san'atning an'anaviy cholg'u asboblari, torli



cholg'ular, an'anaviy xonandalik, fortepiano, tasviriy san'at, estrada xonandaligi kabi yo'nalishlar bo'yicha saboq berilmoqda. Zamonaviy jihozlar, asbob-uskunalar bilan to'liq ta'minlangan, shahar husniga yanada ko'rk baxsh etgan bu koshona haqiqiy ma'noda biz uchun ajoyib sovg'a bo'ldi.

Dilafro'z AYTBAEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Taxiatoş shahar «Kamolot» YOIH a'zosi

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:8 (66965)

2014-yil

24-fevral

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



MA'KITOB - MA'NAVIYAT BULOG'I

Respublika bolalar kutubxonasi
yil davomida an'anaviy yo'nalishda
130 mingdan ziyod kitobxonga
xizmat ko'rsatadi. Internet orqali
foydalanuvchilar oyiga 120 ming
nafarni tashkil etadi.

2-bet

SHE'RIYAT GULSHANI

Kuni kecha poytaxtimizdagi imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan Respublika kasb-hunar kollejida ma'naviy-ma'rifiy anjuman bo'lib o'tdi. Tadbirda olimlar, yozuvchi va shoirlar, o'qituvchilar, kollej o'quvchilari ishtirok etishdi. Bayramda adabiyotshunos olimlar tomonidan Hazrat Navoiy va Mirzo Bobur ijodiga doir ma'lumotlar berildi. Shuningdek, zamondosh shoirimiz Muhammad Yusuf haqidagi bir-biridan qiziq xotiralar ishtirokchilarga olam-olam zavq bag'ishladi.

Ayni paytda 460 nafar o'quvchi ta'lim olayotgan ushbu maskanda bolalarning puxta bilim olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Tikuvchilik, to'quvchilik, radiotexnika, uy-jihozlarini ta'mirlash, kompyuter-operatori, hisobchi kabi kasblar o'rgatila-yotgan bu dargohda adabiyotga, ma'naviyatga e'tibor yuksak ekaniga guvoh bo'ldik. Murg'ak qablarda adabiyotga, ezgulikka havas uyg'ota olgan ustozlarning mehnatiga tahsinlar aytdik.

O'z muxbirimiz



MAKTABDA UCHRASHUV

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 302-maktabda O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Muhammadali Abdugunduzov bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Dastlab maktab o'quvchilari tomonidan Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur g'azallaridan namunalar o'qildi, sahna ko'rinishlari ijro etildi. Shundan so'ng, xalqimizning sevimli aktyori Muhammadali Abdugunduzov so'zga chiqib, o'quvchilarga she'rilar, g'azallar, ruboiylarni chiroyli o'qish bilan birga, ularning ma'nosini ham tushunish kerakligini aytib o'tdi.

Shuningdek, tadbir mehmoni «Bobur» videofilmidan parcha ijro

etib, yig'ilganlarga shoirning g'azal va ruboiylaridan o'qib berdi. So'zining yakunida tinch, xotirjam yurtda o'quvchilar ko'p o'qishlari, ustozlari bergan vazifalarni o'z vaqtida bajarishlari kerakligini ta'kidladi.

Bunday mazmunli uchrashuvni o'tkazishda maktab direktori Feruza Tursumetova, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Nodira Yusupova va Ma'mura Ubaydullayeva, metod birlashma boshlig'i Saodat Jumayevaning xizmatlari katta bo'ldi.

Muzaffar AHMEDOV

KITOB – MA'NAVIYAT BULOQI

Yaqinda uydan ishga kelayotib, bekatda avtobus kutib tursam, chamasi 10–12 yoshlardagi ikki qizaloq yonimga kelib, xushmuomalalik bilan salom berdi. 2–3 tadan kitobni qo'llarida ushlab olgan bu dugonalarning salomiga alik olib, ularning qayerga ketayotganliklari bilan qiziqdim.

Ma'lum bo'lishicha, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 17-umumta'lim maktabining 6-sinfida a'lo baholarga tahsil olayotgan bu qizlar Respublika bolalar kutubxonasiga borishayotgan ekan. Ziyo maskaniga oshiqayotgan kitobsevar o'quvchilarga qarab, menda ham mazkur kutubxona faoliyati bilan yaqindan tanishish istagi tug'ildi.

Ushbu ziyo maskani 230 mingdan ortiq kitob, shuningdek, 10 mingdan ziyod

10–16 yoshli o'quvchilarga mo'ljallangan o'quv zali, kompyuter, san'at, 10 kun muddatga uyga o'qish uchun kitoblar berish bo'limi, media markazi mavjud, – deydi Respublika bolalar kutubxonasi direktori Doniyor O'rolov.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan yoshlar o'rtasida kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish maqsadida har yili Respublika miqyosida uch bosqichli

Sodiqova bizga «Kitob – eng yaqin do'stingiz» deb uqtiradilar. Men ko'proq sevimli shoirimiz Muhammad Yusufning she'rlarini o'qishni yoqtiraman. Ukam esa ertak, hikoyalarni qiziqib mutolaa qiladi. U yaqinda G'afur G'ulomning «Shum bola» asarini o'qib chiqdi.

O'tgan yilning aprel oyidan boshlab O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda kutubxonaning rasmiy saytida www.forum.kitob.uz forumi tashkil etildi. Ushbu forum orqali kitobxonlar va taniqli shoir, yozuvchilar ishtirokida oyda bir marta «On-line» muloqot o'tkazilmoqda.




audio va media shaklidagi elektron resurslar bilan boyib bormoqda. 2013-yildan boshlab kutubxonada audio studiya tashkil qilinib, bolalar uchun o'zbek, rus, ingliz tilarida audio ertaklar yozish yo'lga qo'yilgan.

– Kutubxonamizda sakkizta bo'lim mavjud bo'lib, boshqa ziyo maskanlaridan farqli ravishda bu yerda maktabgacha yoshdagi va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun (3 yoshdan 10 yoshgacha) xizmat ko'rsatish bo'limi faoliyat yuritadi. Shuningdek,

«Kitobxonlar bayrami», oilaviy kitobxonlar targ'ibotiga qaratilgan «Kitobsevarlar», «Yilning eng yaxshi kitobxonlari», «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» kabi ko'rik-tanlovlari o'tkaziladi.

– Men 4-sinfda o'qiydigan ukam Xayrulla bilan birgalikda darsdan bo'sh vaqtimizda bu yerga kelib, o'zimizni qiziqtirgan kitoblarni olib o'qiydiz, – deydi poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 64-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi Karimboy Omonov. – Sinf rahbarimiz Xolida opa



S. TURSINOV o'lgan suratlari

Bolalik – beg'uborlik, deyishadi. Shunday ekan, oltin zinalardan katta hayotga qadam qo'yayotgan farzandlarimiz qo'lga imkon qadar kitob tutqazaylik. Zero, ma'rifatli, bilimli yoshlarga yurt taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladi.

Dilorom HOTAMOVA

Do'stim Karim, qachon qaramang, televizor ko'rganing ko'rgan. Ko'chada, birga o'ynagani chiqsaksak ham, chiqmay kun bo'yi televizor tomosha qiladi. Hatto darslarga ham kechikib boradi, uy vazifalarini bajarmaydi. Darslardan so'ng, ba'zan mazza qilib chana uchamiz, qorbo'ron o'ynaymiz. Karim esa odatdagidek uyidan chiqmaydi. Ammo, bir kuni u biznikiga qo'lida kitob bilan chiqib, meni hayron qoldirdi. Do'stimni hech bunday holda ko'rma-

DO'STIMNI O'ZGARTIRGAN ASAR



ganim uchun yaqinroq borib, kitobning jildiga qaradim. Unda «Peshanasiga televizor yopishgan bola» deb yozib qo'yilgan ekan. «Bu kitobni qayerdan olding?» so'radim undan. U esa bu onasining sovg'asi ekanini aytdi. Buni qarang, pand berishdan charchagan do'stimning onasi Karimga gap uqtirishning zo'r yo'lini topibdi-da! Xullas, Karim kitob tufayli o'z xatosini tushundi, bilimning qadri bildi. Men ham undan so'rab, sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning ushbu qissasini o'qib chiqdim.

Abdulloh AKBAROV,
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 274-maktab o'quvchisi



Shu kunlarda barcha o'rta maxsus ta'lim muassasalarida matematika va geometriya fani oyligi uyushqoqlik bilan o'tkazilayotganini yaxshi bilasiz-a, aziz tengdoshim?! Men ham bu fanga juda qiziqqanligim bois, litseyimizda oylik doirasida o'tkazilgan tadbirlar haqida yozgim keldi. Ayniqsa, guruhimiz o'quvchilari bilan birga tashkil etgan bellashuvimiz maroqli o'tdi. Tadbir yakunida geometrik shakllardan turli jonivorlarning ko'rinishini yasash, murakkab masalalar va boshqotirmalarni yechishda ilg'orlik ko'rsatgan guruhimiz 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Muhi-mi, shu fandan saboq berayotgan ustozimiz Shuhrat akaning ishonchlarini oqladik. Ta'lim dargohimiz rahbari Jumanazar aka Hasanov bizning bilimdonligimizdan quvonib, kelgusi o'qishlarimizda omad yor bo'lishini tiladilar.

Mahbuba QO'LDOSHEVA,
O'zDJTU qoshidagi akademik litseyning 1-bosqich o'quvchisi



Andijon viloyatining eng chekka hududlaridan bo'lgan Jalaquduq tumanidagi 1-bolalar va o'smirlar sport maktabida tuman xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi, «Kamolot» YOIH tuman

Marg'ilon shahar 3-umum-ta'lim maktabi 5-«B» sinf «Kamalak»chilari sinf rahbari Mahliyo

120 nafar yoshlarga hunar sirlarini qunt bilan o'rgatmoqdalar. Ular orasida, jumladan, to'quvchilik, zardo'zlik, misgarlik, zargarlik, tunukozozlik, duradgorlik, kash-tachilik, do'ppido'zlik, ganchkorlik kabi hunar-larni o'rganuvchi yosh o'g'il-qizlarning soni yil sayin ortib bormoqda, - dedi Rasuljon Mirzaahmedov.



«KAMALAK»chilar HUNARMANLAR MARKAZIDA

Komilova boshchiligidagi shahardagi Milliy hunarmandchilik markazida sayohatda bo'ldilar. «Kamalak» a'zolarini «Hunar-mand» uyushmasi shahar bo'limi boshlig'i Rasuljon Mirzaahmedov kutib oldi va bu yerda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishtirdi. - Bugungi kunda markazimizda usta-shogird maktabi tashkil etilgan bo'lib, 68 nafar usta-hunarmandlar

Bu yerga tashrif buyurgan Mavluda Siddiqova, Muxtasar Shahobiddinova, Nurmuhammad Mutalibov singari o'quvchilar kelgusida to'quvchi, libos tikuvchi, duradgor kabi hunarlarni o'rganishga ahd qilishdi.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Farg'ona viloyati

G'OLIBLAR TAQDIRLANDI

Kengashi, madaniyat va sport ishlari bo'limi hamda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tuman bo'limi hamkorligida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-dekabrda «O'zbekiston Xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligini nishonlash to'g'risida»gi Qaroriga asosan stol tennisi bo'yicha tuman birinchilik musobaqalari o'tkazildi. Unda umumta'lim maktablarining 5-7 va 8-9-sinflarida tashil oluvchi o'quvchilar ishtirok etdilar. Murosasiz va qizg'in kechgan bahslarning yakunida g'olib va sovrindorlar tashkilotchilar, homiylar tomonidan «Faxriy yorliq» hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. **Umidjon MAMARASULOV,** Andijon viloyati, Jalaquduq tumani

Bu voqeaga ancha bo'ldi. O'shanda o'zidan-o'zi oyog'im og'riyidigan bo'lib qoldi. Ishxonadami, uydami biroz o'tirib o'rnimdan tursam, og'ng oyog'imni yerga bosolmasdim. Yigirma-o'ttiz qadam oqsoglanib yurgach, asta-sekin og'riq yo'qoldi.

Yaqinda do'stlarimdan biri menga ajoyib portfel sovg'a qildi. Ruchka, hatto o'chirg'ich solib qo'yadigan joyi ham bor. Ayniqsa, telefon uchun ajratilgan «cho'ntakchasi»ning qulayligi menga juda yoqdi. Doim belimdagi g'ilofda olib yuradigan qo'l telefonimni solib ko'rgandim, loyiqqina ekan. Iye, birdaniga boshqa mavzuga o'tib ketdilar, deb hayron bo'layotgandirsiz. Endi biroz sabr qilasiz. Men esa chalg'iyotganim yo'q. Qo'l telefonimni portfelda olib yurishga odatlangach, oyog'imdagi og'riqlar ham o'z-o'zidan yo'qoldi. Negadir bunga telefon sabab bo'lsa kerak, deb o'yladim. Yana kim biladi, deysiz.

BOSHIDAN O'TGAN TABII



eshitmaysan. Mazza qilib radio tinglab yuruvdim, shu desangiz, telefonim birdan pand bera boshladi. Nimagadir ovozi pasayib qoldi. Qadrdon telefonimni yo ta'mirlataman, yo yangilayman, deb o'yladim.

Yaqinda katta qizim simli quloqchinni so'rab olib, qaytarmadi. Yaqin bir hafta radio eshitolmasam, deng. Keyin nima bo'ldi, deysizmi? Telefonimning ovozi o'z-o'zidan ko'tarilib, tuzalib qoldi. Keyin bilsam, telefon emas quloq «betob» bo'lgan ekan. Shundan beri telefonda radio eshitmayman.

Endi keling, bir o'ylashib ko'raylik. Ertalabdan kechgacha bu matohda turli musiqa tinglab yuradigan bolajonlarning holi nima kecharkin. Sizdan esa yosh do'stim telefonda biror hafta musiqa eshitmay, iloji boricha undan uzoqroq bo'lishni tajriba qilib ko'rishingizni so'rayman. Tajriba tugagach, bu masalada yana bir gurlanglashamiz.

Men zarurat bo'lgandagina telefondan foydalanaman. Yaqinda bolalarim qo'yarda-qo'ymay, telefondan radio eshitishni o'rgatib qo'yishdi. Nozikkina simga ulangan quloqchinni qulog'ingga tiqib olsang, bas. Birovga xalaqit bermaysan, radiodan boshqasini

Yusuf ABDULLAYEV

KICKINTOYLARNING SERMAHSUL SHOIRI



Sevimli bolalar shoiri va tarjimon Abdurahmon Akbar «Jonimning suratlari» nomli adabiy qaydlarida shunday yozgan edi: «Xabar» degan soʻz bor, «boʻy» degan soʻz bor. Shu ikki soʻzni yanada jozibali, hayratlanarli koʻrinishga keltirish mumkin. Qanday qilib, deysizmi? Buning yoʻli juda oson. Siz bu soʻzlarni «xushxabar» va «xushboʻy» deb oʻqisangiz, bas, manzara butunlay oʻzgacha tus oladi. Shoirlik deganlari ham shu – soʻzga, soʻz orqali fikrga jilva berishdir.

Bu qaydni bejiz keltirmadik. Boisi, Abdurahmon Akbar ham soʻzga, soʻz orqali fikrga jilva – badiiylik berish yoʻlida koʻp yillardan beri izlanib, ijod qilib kelayotgan shoirlar sirasiga kiradi.

Sheʼrlarini «Koʻngil atalmish bogʻining mevalari, ruhining islari, jonining suratlari» deb biluvchi ijodkor 1962-yilda Yangiyoʻl tumanidagi Niyozbosh qishlogʻida tugʻilgan. Qishloqdagi 23-oʻrta maktabda tahsil olib, 1979-yili hozirgi Oʻzbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga oʻqishga kirgan. Maktab va universitet hayoti Abdurahmon Akbar ijodida katta oʻrin tutadi. Boʻlajak ijodkor oʻquvchilik yillarida Oʻzbekiston xalq shoiri Qudus Muhammadiy boshqargan «Binafsha» adabiy toʻgarigiga qatnashdi. Toʻgarak mashgʻulotlarida Ilyos Muslim, Obid Rasul, Poʻlat Moʻmin, Sulton Jabbor, Rauf Tolib, Hamza Imomberdiyev, Temur Ubaydullo, Olim Mahkam kabi shoirlar bilan uchrashib, ularning adabiy suhbatlaridan bahramand boʻldi. Oradan yillar oʻtgach, uning «Kichkintoy va paxtaoy», «Soʻzlovchi yomgʻir», «Ehtiyotkor toshbaqa», «Yozning tugʻilgan kuni», «Kuylayotgan bogʻ», «Oʻyinqaroq bulutcha», «Oʻrdakcham», «Uyquchining tushlari», «Oymomaning qirgʻ ertagi», «Gʻaroyib avtobus» nomli qator sheʼriy kitoblari chop etildi. A. Akbar badiiy tarjima sohasida ham barakali ijod qilib, ellikka yaqin tarjima kitoblarni

chop ettirishga muvaffaq boʻldi. Yosh kitobxonlar uning tarjimasida jahonning 70 ga yaqin bolalar shoirlarining sheʼrlari bilan tanishgan.

Bolalar adabiyotiga koʻp yillik urinishlar, tayyorgarlik va katta ishtiyoq bilan kirib kelgan shoimning barakali ijodi oradan yillar oʻtib oʻz bahosini oldi. Abdurahmon Akbar 2006-yili Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi unvoniga sazovor boʻldi. Asarlari boshlangʻich sinf oʻquvchilarining «Ona tili», «Oʻzbek tili», «Odobnoma», «Oʻqish kitobi» kabi darsliklariga kiritildi.

Ijodkor koʻplab adabiy qahramonlarini hayotdan oladi. U farzandlari, nabiralari, shuningdek, yaqin doʻstlarining bolalik quvonchlarini qalamga olar ekan, oʻquvchilarni, avvalo, ona Vatanni sevishga, vaqtni qadrlashga, tabiatni asrashga, mehnatsevarlikka chorlaydi, ularda kitobga mehr-muhabbat uygʻotishga harakat qiladi.

MUSICHA

Necha kunki ahvol shu:
Oʻzini bosar arang.
Toʻrtta xasni boʻgʻotga
Qoʻndira olmay garang.

Musichaning holiga
Achingan koʻp, kulgan koʻp.
Yerga tushar tuxumi
Koʻzdan tomgan yoshdek boʻp.

Tumshuqqa loy iylagan
Qaldirgʻ ochlar chayqar bosh:
– Hasharga aytsang bizni
Boʻlardi-ku, qarindosh?..

Shoir ijodi bilan yaqindan tanishgan kitobxon sheʼrlarining talaygina qismi maʼlum voqea-hodisalarni tasvirlash usulida yaratilganini payqaydi.

Zardoʻppi misolida u milliy qadriyatlarimizdan biri boʻlmish doʻppini tarannum etish bilan birga, kitobxonni kattalar mehnatini qadrlashga, milliy qadriyatlarimiz bilan faxrlanishga, gʻururlanishga chorlaydi:



Zardoʻppi, tillo doʻppi
Boʻlib keidi qoʻlma-qoʻl.
Shoshib qoldi qizlarjon:
– Men ham koʻray, qani, boʻl.

Galma-galdan kiyishib,
Nozlanishdi, yayrashdi.
Oyim kiygan zardoʻppi,
Barcha qizga yarashdi!

Abdurahmon Akbar keyingi yillarda xalq ogʻzaki ijodiga tayangan holda «Ibratli eʼtqarlar» turkumini yaratdi. Uning «Ilmning sharofati», «Qorashaqshaq, tovus va qarqara», «Ona hurmati», «Tadbirkor oʻgʻil», «Bogʻ» nomli sheʼriy eʼtqarlar yosh kitobxonlar mehrini qozonishga ulgurdi.

Kenjatoyin atrofing
Qarindoshlar oʻrabdi.
– Oʻgʻlim, during qani? – deb
Ota sekin soʻrabdi.

– Yelkalarigda nelar
Porlamogda zardayin?
Ha, bildim, sen durlaring
Taqqolgansan atayin.

– Ular durmas, otajon, –
Debdi kenja chayqar bosh. –
Qani edi dur boʻlsa,
Bular bor-yoʻgʻi koʻz yosh.



«Sheʼr degani nima? Bu savolga ehtimol umrim boʻyiq aniq javobni topa olmasan. Biroq, uning nimadan yaralishini bilaman. Hech shubha yoʻlmi, u MEHRdan bunoyd boʻladi», deb yozadi shoir oʻzining «Jonimning suratlari» risolasida. Soʻzimiz soʻngida Abdurahmon Akbarning bolajonlarning mehrini qozona oladigan sheʼrlari yanada koʻpayaversin, deb qolamiz.

Mamasoli JUMABOYEV,
professor,

Hilolaxon NAZAROVA,

Andijon viloyati, Marhamat tumanidagi
23-maktabning boshlangʻich sinf muallimasi

SOGʻLIQNI YOSHLIKDAN ASRANG

Jismoniy mashq bilan moʻtadil va oʻz vaqtida shugʻullanib turgan odamning doridarmon bilan davolanishiga ehtiyoj qolmaydi.

Abu Ali Ibn SINO

Oʻzingizni chetdan hech kuzatganmisiz? Aytaylik, kechqurun vaqtida uyquga yotmay, ertalab erinibgina uygʻandingiz. Nonushtani ham bazoʻr qilgach, apil-tapil maktabga otladingiz. Dars allaqachon boshlangan boʻlishiga qaramay, siz hamon mudragancha partada qiyshayib oʻtiribsiz... Baʼzi bolalar uchun odatga aylanib qolgan ana shu arzimas jarayon aslida sogʻligʻingiz uchun arzigulik salbiy taʼsir koʻrsatishini bilasizmi? Birinchidan, uyquning yetarli boʻlmagani, nonushtada organizmingiz kerakli miqdordagi kaloriyani qabul qilmagani va uchinchidan partada notoʻgʻri oʻtirishingiz sizni skolioz, yaʼni umurtqa pogʻonasining qiyshayishi kasalligini orttirib olishingizga sabab boʻlishi mumkin. Xoʻsh, bu xastalikning oldini olish uchun nima qilish kerak, deyatotgan boʻlsangiz, mutaxassis fikriga quloq tuting.

Mahfuza USMONOVA, shifokor-ortoped:

– Oʻquvchilarning oʻsmirlik davrida suyak-tayanch tizimi rivojlanayotgan boʻlib, turli sababiy taʼsirlar suyaklarning notoʻgʻri oʻsishiga olib keladi. Umurtqa pogʻonasi oʻz oʻqi atrofida qiyshayib, skolioz kasalligi kelib chiqadi. Bu xastalikni biz mutaxassislar ayyor kasallik deb ham aytamiz. Negaki, bolalarning partada notoʻgʻri oʻtirishi, papkasida uch kilogrammdan ortiq yukni koʻtarishlari, tana ogʻirligini bir tomonga tashlab turishlari natijasida bu kasallik asta-sekin rivojlana boshlaydi. Baʼzan esa raxit va yassioyoqlik xastaligi ham skoliozni keltirib chiqarishi mumkin.



Kasallikning oldini olish uchun har bir bola oʻzining yurish-turishi, gavdasini qanday tutayotganiga eʼtibor qaratishi lozim. Dars paytida besh daqiqalik jismoniy mashqlarni bajarish ham xastalikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Eng asosiysi, ertalabki badantariya va sport bilan shugʻullanishni kanda qilmaslik zarur. Shuningdek, oʻsmirlarga ikki santimetrdan baland boʻlmagan yostiqa yotishni tavsiya etgan boʻlardim.

Endi tengdoshlaringiz fikriga ham quloq tutsak. Iroda Zulfarxoʻjayevaning aytishicha, oʻz qaddini tik tutib, chiroyli yurmayotganini sezgach, onasi bilan birga shifokorga murojaat qilibdi. Irodada kasallikning birinchi bosqichi boshlanganini aytgan mutaxassis, unga poytaxtimizdagi 4-skolioz kasalligiga ixtisoslashgan maktab-internatda oʻqishni tavsiya qilibdi. Bugun Iroda ushbu taʼlim dargohining 8-«A» sinfida tahsil olmoqda. Barcha sharoitlarga ega boʻlgan maktab-internatda turli toʻgaraklar tashkil etilgan boʻlib, oʻquvchilar hafta davomida shu maskanda oʻqib, davolanishadi.

Aziz oʻquvchim! Siz ham doimo salomatligingiz haqida qaygʻurib, yuqoridagi fikrlarimizdan toʻgʻri xulosa chiqarasiz, degan umiddamiz.

Sayyora QODIROVA



TANLOV DAVOM ETMOQDA!

Qadri o'quvchilar! Xabaringiz bor, gazetamizning 2014-yil 6-yanvar 1-sonida Respublika bolalar kutubxonasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, «Tong yulduzi» bolalar va o'smirlar gazetasi hamkorligida an'anaviy «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» Respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanlovini e'lon qilgan edik.

Yurtimiz Mustaqilligining 23 yilligi hamda «Sog'lom bola yili» munosabati bilan an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan mazkur tanlov 2014-yilning sentabr oyiga qadar davom etadi.

Tanlovni o'tkazishdan maqsad, barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalash, ular qalbida ona Vatanga muhabbat ruhini yanada yuksaltirish, milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, qadriyatlarimizni yoshlar ongiga singdirish, ularda o'z ona yurtidan faxrlanish hissini shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, iste'dodli, zukko o'g'il-qizlarni izlash, aniqlash va ulardagi iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratishdir.

«Mustaqillik madhi bolalar ijodida» Respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanlovi:

1. Tasviriy san'at.
2. Badiiy adabiyot (she'rlar, hikoyalar, insholar) yo'nalishida o'tkaziladi.

O'quvchilar o'z ijod namunalarida O'zbekistonimizning mustaqil taraqqiyot yillarida turli sohalarda erishgan yutuq va natijalari, yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, aholi turmush farovonligini oshirish yo'lida amalga oshirilayotgan ezgu ishlar haqida yozishlari mumkin.

Mavzuga oid bo'lmagan ijodiy ishlar tanlovda ishtirok etmaydi.

Tanlov talablariga to'la javob beradigan eng mazmundor ishlar «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarida «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» rukni ostida muntazam chop etib boriladi.

Ko'rik-tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi 2014-yilning sentabr oyida Respublika bolalar kutubxonasining ajoyib zalida o'tkaziladi. G'oliblar tashkilotchilar tomonidan diplom va sovg'alar bilan taqdirlanadilar.

Tanlovga kelgan ijodiy ishlarda o'quvchining o'z manzili, ta'lim olayotgan maktabi va sinfi, telefon raqami ko'rsatilishi hamda 4x5 hajmdagi fotosurati bo'lishi shart. Ijodiy ishlar 2-3 bet hajmda, «Times New Roman» formatida, 14 shrift va 1,5 intervalda yozilishi va joriy yilning 20-avgustiga qadar xat orqali Respublika bolalar kutubxonasi manziliga yoki elektron shaklda kutubxonaning elektron manziliga yuborilishi lozim.

Manzilimiz:

Toshkent shahri, 100000

Yahyo G'ulomov ko'chasi, 47-uy.

Respublika bolalar kutubxonasi

Tel: 8-371-233-17-91, 233-25-19.

Elektron manzil:

Bolalar_RK@inbox.uz

www.kitob.uz

Aziz o'quvchilar, tanlovda ishtirok etishga shoshiling, g'oliblar safidan o'rin oling, diplom va esdalik sovg'alarga ega bo'ling.

Quyida tanlovga kelgan ilk ijodiy ishlar bilan tanishasiz.



Jaloliddin NAZAROV,
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi
17-maktabning 5-sinf o'quvchisi

TINCHLIK BO'LSIN!

Tinchlik bo'lsin barqaror,
Dunyo xalqi bo'lar shod.
Qaydagi mehr bordur,
Ko'ngillar bo'lgay shod.

Yurtimiz qirlarida,
Yashnasin gul-lolalar.
Vatanimiz bag'rida
Quvnashaylik, bolalar.

Tinchlik – moviy osmondir,
Ko'kni quchgan kabutar.
Orzularim bir jahon,
Bizni kelajak kutar.

Nodira G'OZIYEVA,
Sirdaryo viloyati, Oq oltin
tumanidagi 17-umumta'lim
maktabining 9-sinf o'quvchisi

to be yordamchi fe'lning hozirgi zamonda tushlanishi

Aziz bolajonlar! Bugun sizlar bilan to be, ya'ni bo'lmoq fe'lning shaxs-sonda tushlanishiga oid bilimlaringizni mustahkamlaymiz.

Birlik

I – men – am

he – U (o'g'il bola)

she – U (qiz bola)

it (narsa, buyum va jonivorlar)

is

Ko'plik

we – biz

you – siz

they – ular

are

QUESTION FORM (Savol shakli)

to be fe'lning savol shaklida yordamchi fe'l egadan oldin yoziladi:

am I ...



Is she a director?
U direktormi?

Are they doctors?
Ular shifokormi?

Are you a student?
Siz talabamisiz?

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!



You are a teacher.
Siz o'qituvchisiz.

I am a pupil.
Men o'quvchiman.


She is a dress maker.
U tikuvchi.

It is cold. Havo sovuq.



NEGATIVE FORM (Inkor shakli)

Inkor shaklida esa yordamchi fe'lga «not» (emas) qo'shimchasi qo'shiladi:



I am not a doctor.
He is not an engineer.
We are not workers.
It is not hot.

Men shifokor emasman.
U muhandis emas.
Biz ishchi emasmiz.
Havo issiq emas.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
talabasi Dinora SHAKIROVA tayyorladi

JILG'ALAR DARYOGA SHOSHADI


Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani kunlar isishi bilan purviqor tog'lari, zilol chashmalari, yashil adirlari bilan o'zgacha manzara kasb etadi. Shuning uchunmi, kitobxonlarning qalbi hayratlanishdan to'xtamaydi, hayotini adabiyotsiz, she'riyatsiz tasavvur etolmaydi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Muhammad Rahmon, Zebo Mirzo, Inobat Oydin, G'ayrat Majid kabi shoirlar yetishib chiqqan bu mo'jaz zaminda yoshlarni ma'naviyatli qilib tarbiyalash, yosh ijodkorlarga yo'nalish berish maqsadida turli adabiy-badiiy to'garaklar faoliyat yuritib kelmoqda. Tumandagi 61-umumta'lim maktabida tashkil etilgan «Orzuga to'la qalb» to'garagi shular jumlasidan. Quyida ana shu to'garak a'zolarining ijod namunalaridan havola etmoqdamiz. O'ylaymizki, ular sizga manzur bo'ladi.



BOYCHECHAK

Gullarning to'ng'ichisan,
Omon-omon, boychechak.
Bahorning darakchisi,
Husnga boy, oy chechak.



Farida IBRAGIMOVA,
4-sinf o'quvchisi

ONAJON

Qo'shiq yo'qdir, alladan ham ziyoda,
Sizdek qalbi dunyo yo'qdir dunyoda.
Mehr oqqan daryo yo'qdir dunyoda,
Sizdan bo'lak, sizdan bo'lak, onalar.

Beshiklarda tebratgansiz dunyoni,
Nur berib siz, ziyo qilgan ziyoni.
Ko'rmaganman hali mehriyoni,
Sizdan bo'lak, sizdan bo'lak, onalar.
Hulkar HAZRATOVA,
6-sinf o'quvchisi



KO'K KAPTAR

Ko'k kaptar uchib ketdi,
Pok niyat jo'shib ketdi.
Ketgani sari yiroq,
Bulut hurpayar biroq.

Anoyimas, kamtar ham,
Ishonchimni sezadi.
Hurpaygan bulutlarni
Qanoti-la kesadi.

Nurjahon UMAROV,
6-sinf o'quvchisi



LOYXO'RAK

Loyxo'rajon, loyxo'rak,
Yugurik jon – loyxo'rak.
Daryo-yu ariqlardan
Axtarasan ne xo'rak?!

Bir kun kuzatsam, ajab
Ariqchada turarding.
Sen loylarni cho'qilab,
Astagina yutarding.

Bu ishing ancha yaxshi,
Deb o'yladim o'zimcha.
Ariqni tozalaysan,
Ertadan to tungacha.

Loyxo'rajon, loyxo'rak,
Bordir ezgu bir tilak:
Sen loyni tozalab tur,
Tabiatga sen kerak.

Abbos ISLOMOV,
6-sinf o'quvchisi



Sur'at to'rtinchi sinfda o'qiydi.

Baholari doim «uch». Negaki, u juda dangasa. Hatto yuzini yuvishga erinadi. Oyisi bilan dadasi unga qancha tozalik haqida gapirishmasin, ozodalik haqida ertaklar aytib berishmasin, uning parvoyiga kelmaydi. Oyisi kiydirib qo'ygan top-toza ko'ylakni bir soatdan so'ng o'zi ham tanimay qoladi. Tishlarini qachon yuvgani esida ham yo'q.

Koptok o'ynab loy bo'lgan qo'lini esa chang bo'lgan shimiga artadi. Devor oshib, mevasini ko'z-ko'zlayotgan shoxdan bir sakrab o'rik uzib oladi-yu, ichi kirdan to'lib qolgan tirnoqli qo'llari bilan og'ziga soladi.

– Jon bolam, bor, yuvinib chiqqin, terlaganingdan sochlaring bir-biriga yopishib ketibdi, – yalindi oyisi.

– Aka, oyoq kiyimingiz namuncha loy, uyga yechib



SUR'AT UYALDI

(Mikoya)

kirsangiz bo'lmaydimi? – xafa bo'ladi endigina polni artib chiqqan singlisi.

– E, ko'p gapirma, undan ko'ra, bo'l, choy tayyorla, qormim ochdi, – deydi tamshanib.

– Oyimning ovqati tayyor, qo'lingizni yuving, – deydi singlisi.

– Qo'limni ertalab yuvganman, hadeb yuvaveramanmi, – Sur'at shunday deb kir qo'li bilan bir bo'lak shirinlikni og'ziga soldi. Bir kuni Sur'atning qorni qattiq og'rib qoldi.

U qornini changallab u yoqdan-bu yoqqa ag'anar, peshanasidan reza-reza ter oqardi. Qo'rqib ketgan dadasi yarim kechada qishloqdagi doktor amakini chaqirib keldi.

Doktor amaki uni sinchiklab tekshirdi. Bo'ynidagi oq dog'larni ko'rgach, shoshib Sur'atning qo'lini ushladi, o'sib ketgan tirnoqlariga qaradi-da, boshini sarak-sarak qildi.

– Tushunarli... – dedi u. – Shunday ziyoli oilaning bolasi nahotki, gigiyenaga rioya qilmasa, – dedi doktor amaki Sur'atning ota-onasidan ranjib, – hamma kasallik kir qo'llar sababli bo'lishini bilmaysanmi, o'g'lim? O'zing og'riganing yetmaganday, bu kasallik sendan singlingga, hatto ota-onangga ham yuqishi mumkin. Tezda shifoxonaga yotmasang...

Sur'at ikki hafta shifoxonada davolanib chiqdi. Uyga kelgach, to'g'ri hammomga yo'l oldi. Oyisi suyunib, orqasidan uning ochorli kiyimlarini olib kirib berdi...

Oradan ancha vaqt o'tib, hammom eshigi ochildi. Onasi top-toza kiyimda, sochlari silliq taralgan, oppoq yuzli yonoqlari qip-qizil o'g'lini ko'rib, tanimaganday uzoq tikildi, sekin borib, uni quchog'iga oldi.

– Ana, endi haqiqiy Sur'at bo'libsana, bolajonim!
– Oyijon, endi doim tozalikka rioya qilaman, tozalik – sog'lik garovi ekanligini tushundim, – dedi u yerga qarab.

Muhabbat HAMIDOVA

Istiqlol yillarida Namangan viloyati tanib bo'lmas darajada chiroy ochdi. Bugun viloyatning qay bir go'shasiga bormang, yangitdan bunyod etilgan madaniy-ma'rifiy markazlar, maktablar, kasb-hunar kollejlari, akademik litseyalar, sport majmualari, go'zal bog'-u rog'larni ko'rib, aqlingiz shoshadi. Quvonarlisi, bunday ulkan o'zgarishlar, yangilanishlar, namanganlik yoshlarning ta'lim olishi, sport bilan muntazam shug'ullanishi, bir so'z bilan aytganda, ularning o'z iqtidorlarini to'la namoyon etishiga zamin hozirlamoqda. Buni Namangan shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 49-umumta'lim maktabi o'quvchilarining sport sohasida erishayotgan yutuqlari misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.



BIR MAKTABDAN 40 CHEMPION

Mazkur bilim dargohi viloyatning eng ilg'or ta'lim maskanlaridan biri sanaladi. Barcha ta'lim muassasalarida bo'lgani kabi ushbu maktabda ham o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun fan to'garaklari, sport seksiyalari tashkil etilgan. Zamon talablariga mos jihozlangan sport zali, futbol maydoni, voleybol va basketbol maydonchalari, yengil atletikaga moslangan yugurish yo'laklari, stol tennis xonalari sportga ixlosmand yoshlarning sog'lom, kuchli, mard va qat'iyatli bo'lib kamolga yetishiga xizmat qilmoqda.

– Sport unib-o'sib kelayotgan yosh avlodning ham ma'nani, ham jismonan barkamol bo'lib voyaga yetishiga, ularning odob-axloqi, salomatligining yaxshilanishiga, fanlarni o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir etadi, – deydi maktab direktori Rahmonjon Ashurov. – Keyingi yillarda maktabimiz o'quvchilarining respublika va xalqaro musobaqalarda qo'lga kiritayotgan yutuqlari buning yorqin misolidir.

Ayni paytda maktabda basketbol, voleybol, yengil atletika, stol tennis, shaxmat-shashka, futbol, kurash kabi sportning 12 turi bo'yicha to'garaklar faoliyat yuritmoqda.

2013-yilda vaterpol bo'yicha

Malayziyada bo'lib o'tgan xalqaro turnirda maktabning o'g'il bolalar jamoasi muvaffaqiyatli ishtirok etib qaytishdi. Ayniqsa, bilim dargohining 8-«D» sinf o'quvchisi Levon Zaxaryans, 9-«D» sinf o'quvchisi

jamoasi bosh murabbiyi Jamil Shoa'zamov. – Jumladan, maktabning 7-«D» sinf o'quvchisi Aleksey Britenkov, 7-«B» sinf o'quvchisi Madina Abdullayeva, 8-«G» sinf o'quvchisi Anora Mirzayeva O'zbekiston chempioni, 8-«D» sinf o'quvchisi

– Maktabning 7-«D» sinf o'quvchilari – Karina Sobirjonova, Indira Umerova, Yekaterina Antipinskaya, Lyuba Abdullayeva «Navbahor» ayollar futbol jamoasining eng yetakchi a'zolari sanalishadi. Ishonamanki, ular kelajakda futbol bo'yicha O'zbekiston ayollar terma jamoasi tarkibidan munosib joy egallab, mamlakatimiz sharafini xalqaro musobaqalarda munosib himoya qilishadi, – deydi maktabning oliy toifali o'qituvchisi, ayollar futboli bo'yicha sport ustasi, «Navbahor» ayollar futbol jamoasi bosh murabbiyi Karima Yuldasheva.

Sport sahifamizdagi ushbu maqolani o'qib chiqqach, namanganlik yosh chempion tengdoshlaringizga havas qilayotgan bo'lsangiz kerak-a? Tilagingiz, umringizning



Baxtiyor Abdug'aniyevning o'yinlari

muxlis-u mutaxassislarda iliq taassurot qoldirdi.

Maktab o'quvchilari o'rtasida yengil atletika sport turlari ham ancha ommalashgan. Ayni paytda ta'lim maskanida yengil atletikaga mo'ljallangan yugurish yo'laklarida yosh sportchilar o'z mahoratlarini oshirmoqdalar.

– Ushbu maktabda tahsil olayotgan o'quvchilar orasida yengil atletika sport turlari bo'yicha ulkan yutuqlarni qo'lga kiritayotgan umidli sportchilar talaygina, – deydi oliy toifali o'qituvchi, yengil atletika bo'yicha viloyat terma

Baxtiyor ABDUG'ANIYEV: MAQSADIM – JAHON CHEMPIONI BO'LIH



– Bolaligimda sovuq kunlar kelishi bilan tezda shamollab qolardim. Eng yomoni, bu kasallik menda juda og'ir kechardi. Haftalab maktabga bora olmas, fanlarni o'zlashtirishim ham juda pasayib ketgan edi. Shunda ota-onam o'zaro maslahatlashib, meni vaterpol to'garagiga berishdi. Ana shundan so'ng, salomatligim mustahkamlanib, huda-behudaga shamollayverish odatim yo'qoldi. Qolaversa, maktabda fanlarni o'zlashtirishim ham yaxshi tomonga o'zgardi.

Murabbiyimiz ham sport, xususan, suv sporti turlari bilan shug'ullanish inson organizmiga juda katta foydasi bor. Jumladan, suvda suzish tanadagi qon aylanishini yaxshilaydi, o'g'il bolalar qat'iyatli, matonatli bo'lib ulg'ayadi, deya ta'kidlaydilar.

Mana, bir necha yildirki, vaterpol bilan muntazam shug'ullanib kelyapman. O'tgan qisqa vaqt oralig'ida, respublika va xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, jamoamiz bilan birga sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdik. Jumladan, 2013-yilning 5–11-oktabr kunlari Malayziyada vaterpol bo'yicha o'tkazilgan xalqaro musobaqada bor mahoratimizni namoyon etib, yakunda shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy egalladik. Kelajakda mohir sportchi bo'lib, jahon birinchiliklarida yurtim sharafini munosib himoya qilmoqchiman.

Jabborova hamda 9-«V» sinf o'quvchisi Farruh Murodov O'zbekiston chempionati sovrindorlari hisoblanadi. Ayni paytda yosh atletlar joriy yildagi respublika va xalqaro musobaqalarga jiddiy hozirlik ko'rishmoqda.

eng go'zal dami bo'lgan yoshlikning qadriga yetib, sport bilan muntazam shug'ullanib. Zero, sport salomatlik garovidir.

Sa'dullo TURSINOV

Zarina JAMALADINOVA:

SPORT – MENING HAYOTIM

– Keyingi yillarda viloyatlik tengdoshlarim ta'lim, sport, san'at sohaslarida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Quvonarlisi, ana shunday iqtidorli o'quvchilar men tahsil olayotgan 49-umumta'lim maktabida ham talaygina. Ayniqsa, maktabimiz o'quvchilarining aksariyati sport bo'yicha respublika va xalqaro musobaqalar g'oliblari, sovrindorlaridir. Bunday yutuqlar zamirida, albatta, mamlakatimizda bolalar sportiga qaratilayotgan e'tibor, Prezidentimiz tomonidan biz yoshlarga ko'rsatilayotgan yuksak g'amxo'rlik yotibdi.

2013-yilning noyabr oyida Qozog'istonda vaterpol bo'yicha o'tkazilgan Markaziy Osiyo chempionatida jamoamiz bilan faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritdik. Shuningdek, o'tgan yili O'zbekiston chempionatida ham barcha raqiblarimizni ortda qoldirib, bosh sovringa sazovor bo'ldik. Bu yutuqlar bilan chegaralanib qolmay, galdagi nufuzli musobaqalarda faol qatnashib, bizga bildirilgan ishonchni to'la oqlaymiz.

Biladizmi?? JONIVORLAR JOLAMI



Bu jonivor haqidagi ma'lumotlarni eshitishingiz bilanoq, uning munchoq ko'zlari, oppoq yunglari ko'z oldingizga keladi. Bugun sizlarga ayiqsimonlar oilasiga mansub sut emizuvchi jonivorlardan biri oq ayiq haqida ma'lumot beramiz.

Oq ayiq Arktika faunasining yirik vakili bo'lib, u suzuvchi muzliklar va Shimoliy muz okeani sohillari yaqinida yashaydi. Ancha yirik bo'lgan bu hayvon gavdasining uzunligi 3 metrga, vazni esa 800 kilogrammgacha yetadi. Oq ayiqning rangi o'z nomi bilan aytganda oq bo'lsa-da, ba'zilarining rangi sarg'ish va kulrang bo'lishi ham mumkin ekan. U suvda yaxshi suzadi va sho'ng'iydi. Oq ayiq tanasining qirq foizini yog' tashkil etgani bois, atrof-muhit harorati -50° C gacha pasayganda ham tanasidagi gazlar almashinuvi kuchaymaydi. Terisi ostidagi qalin yog' qatlami va yungi ham uni sovuqdan asraydi. Buni qarangi, ushbu yirik jonivorning hatto tovonlari ham yung bilan qoplangan.

Yana bir ma'lumot: bu jonivor panjarlariga qor olib, ko'z va quloqlarini artadi.

Oq ayiqning asosiy ozig'i shimol bug'ulari, tyulenlar bo'lib, u o'ljasi daryoning muzlamay qolgan joyida poylaydi. Panjasi bilan kuchli zarba berib, o'ljasi suvdan muz ustiga tortib oladi.

Ayiq ikki yilda bir marta bittadan uchtagacha bolalaydi.

ZUBAYDA tayyorladi

TOPISHMOQLAR

Asli shakli yumaloq,
Go'yo o'xshar tarvuzga.
Barcha sport turi-yu
O'yinda hamroh bizga.



Tekislash chin xohishim.
Toksiz bitmaydi ishim.
Qizitib ishlatsangiz,
G'ijimdan qolmaydi iz.

Mafuna QO'SHBOQOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti
qoshidagi «Sayiljoy» akademik
litseyi o'quvchisi



UCHRASHUV

Tun. U shunchalar bag'ri-keng, shunchalar bepoyonki, butun olamni quchoq'ida tutadi, go'yo. Ayni paytda u taqqan quvnoq, oppoq moychechaklarini bag'rida yashirish bilan ovora. Ularning malikasi latofatli hilolni ham e'tibordan chetda qoldirayotgani yo'q.

Tun uzoqdan kekxa Qu-yosh bilan kelayotgan tongni ko'rib qolgan chog'i, samo taxtini bo'shatishga shaylandi. Ajib... Kun va tun uchrashuvida osmon bo'zarib, oqlikka tomon shoshadi. Mehri



qaynoq Quyosh esa zabardast tog'lar ortidan chiqib kelishni ma'qul bildi. Bu hayot filmida shamol uvillab surmay chalsa, daraxtlar yanoqlari qizarayotgan barglarini tebratib raqsga tushar, qushlar chug'urlashib, zilol suv shildirab bunga jo'rovov bo'ldi. Tongning eng kichik farzandi - mo'jizadan yaralgan shabnam shoirda ilhom borligini isbotlovchi haqiqat edi, nazarimda...

Jannatxon O'RMONJONOVA,
Farg'ona viloyati,
O'zbekiston tumanidagi
19-umumta'lim maktabining
8-sinf o'quvchisi

Ona zamin ne'matlari

Jannatmakon
O'zbekistonimizdagi
har bir meva va o'sim-
likning foydali jihatlari
juda ko'p. Shulardan
biri na'matak. Quyida
uning shifobaxsh xu-
susiyatlari bilan
tanishasiz.

Aziz bolajonlar! Ming dardga davo na'matakning kelib chiqishi haqida bilasizmi? Ulug' bobomiz Abu Ali ibn Sino na'matakning inson salomatligi uchun juda foydali ekanligini o'z kitoblarida yozib qoldirgan. U

tish va tomoq og'rig'ida juda foydalidir. Na'matak o'simligining guli, mevasi, urug'i, bargi va ildizi xalq tabobatida keng qo'llanib kelinadi. Mevasidan tayyorlangan damlama va qaynatma o'pka sili, terlama, o'tqopining yallig'lanishi, buyrak, qovuq kasalliklarini davolashda keng qo'llaniladi.

Uning mevasi tanaga quvvat bag'ishlaydi. O'simlik ildizidan

tayyorlangan damlama va qaynatma xalq orasida me'da-ichak va jigar kasalliklariga, kukuni esa yaralarga davo sifatida qo'llanilib kelinadi.

Buning uchun 15-20 dona na'matak mevasini novvot yoki asal solib, 1 litrli termosga damlaysiz. 2-3 soatdan so'ng ovqatdan oldin kuniga uch mahal bir piyoladan 10 kun davomida ichib yurasiz.

MANZURA



Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!

L G O I N I B N G O R R O N I O B R,
I Q I Z R B O I N N G A Q I D R R B O.

Aziz bolajonlar! Ushbu kataklardagi harflarni joy-joyiga qo'yib o'qisangiz, o'zbek xalq maqoli kelib chiqadi.
Fayzulla ABDULLAYEV tuzdi

«CHIG'ANOQ» SHIRINLIGI

Bu shirinlik boshqa pishiriqlardan tez va oson tayyor bo'lishi bilan ajralib turadi. Uni tayyorlab ko'rsangiz, bunga o'zingiz ham ishonch hosil qilasiz.

Kerakli masalliqar: 100 gramm smetana, 3 dona tuxum sarig'i, 200 gramm margarin, 2 stakan un, 100 gramm qand upasi, 1 piyola shakar, maydalangan yong'oq.

Tayyorlanishi: Avvalo, uch dona tuxum sarig'ini smetana bilan yaxshilab atalab, yarim soatga olib qo'yamiz. Unni margarin bilan uqalab, tuxum va smetana aralashmaga qo'shib, yumshoq xamir qoramiz va biroz tindiramiz. Xamir tingunga qadar sirli idishga olib qo'yilgan tuxum oqiga shakarni oz-ozdan solib, ko'pirtiramiz. Unga yong'oq mag'zini qo'shib, atalashda davom etamiz.

Tingan xamirmi yong'oqdek zuvalachalarga bo'lib, jo'va yordamida yoyamiz. Ularning ichiga kremni solib, chig'anoq holda tugamiz.

Gaz pechini 180 daraja issiqlikda qizdirib, 25-30 daqiqa davomida chig'anoqsimon pishiriqlarni pishiramiz. Tayyor shirinliklar ustiga issiqlikida qand upasini sepamiz. Tayyor bo'lgan chig'anoqchalarni likopchaga solib, dasturxonga tortiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA